

## **1. Aksariyat maktab bitiruvchilari oliy ta'limni talab etmaydigan zamonaviy kasblarni egallashga qiziqish bildirishsa, ayrimlar zamonaviy kasblar insonga butun umrlik faoliyat bo'lib qolishiga ishonishmaydi**

Inson o'zining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun doimiy ravishda biror ish bilan band bo'ladi. Kimdir yetakchi bo'g'inda mehnat qilsa, yana birov o'rta va quyi tizimdagi xizmatlar bilan shug'ullanadi. Ilg'or fikr egalari oliy ta'lim diplomini talab qilmaydiga kasblarni ma'qul deb bilsa, boshqalar yangi paydo bo'lgan yo'nalishlarning kelajagi mavhumligini ta'kidlashadi.

Barchamizga ma'lumki, bugungi fan va texnika rivojlangan dunyoda eski kasblar singari zamonaviylariga ham ehtiyoj ortib bormoqda. Jamiyatning bir qator a'zolari o'z farzandlari uchun diplom talab qilinmaydigan faoliyatning afzalligini aytishadi. Ularning fikricha, global iqtisodiy taraqqiyot fonida oliy ta'limga bo'lgan ehtiyoj kamayib bormoqda. Shuningdek, yurtimiz uchun nisbatan yangi bo'lgan IT, SMM, dasturlash va shu kabi sohalarga o'smirlarimiz orasida qiziqish ortib borayotganligi hamda mazkur kasblarga "tegishli qog'oz" ning talab etilmasligi bu fikrni yanada mustahkamlaydi. Davlat statistika qo'mitasining bergan ma'lumotlariga qaraganda, hozirgi davr yoshlarining o'rtacha 55 % ga yaqini oliy ta'limda tahsil olgandan ko'ra kompyuter va chet tillarini mukammal o'rganish istagini bildirgan. Agar inson axborot texnologiyalarini tushunib, o'z o'rnida foydalana olsa, katta daromadga ega bo'ladi degan qarash bunday natijaga sabab bo'lmoqda.

Har yaxshining bir yomoni bor deganlaridek, mazkur masalada zamonaviy kasblarning umri qisqa ekanligini uqtiruvchilar ham mavjud. Birinchidan, jamiyatda moliyaviy faoliyat turlari bilan bir qatorda ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmat ko'rsatishning boshqa shakllari ham mavjud. Inson bor ekan uni tarbiyalash, o'qitish, sog'ligidagi muammolarni bartaraf qilish, uzog'ini yaqin qilish kabi sohalar ham takomil topib boraveradi. Tabiiyki, bu yo'nalishlarda oliy ta'lim muhim hisoblanadi. Shuningdek, yuqorida keltirilgan zamonaviy kasblar yillar o'tib o'zining jozibadorligini yo'qotishi, gadjetlar bilan bog'liq sohalar 50 yoki 40 yildan keyin boshqacha ko'rinishni egallashi mumkin. Bundan 10- 15 yil muqaddam shahar-u qishloqlarimizda "paynetchi", "disk sotuvchi" singari diplomsiz katta daromad qila oladigan kasblar bor edi. Global

internet tarmog'ining rivoji, simsiz aloqa vositalarining taraqqiyoti hamda pul o'tkazmalarining uchinchi tomon aralashuvisiz amalga oshirilishi, kino va musiqa sanoatining shularga teng ravishda o'sishi natijasida hozirgi kunda bunday xizmatlarga talab yo'qoldi. "SAMSUNG" kompaniyasi kuni kecha disk ishlab chiqaruvchi bo'limining rasman yopilganligini e'lon qilganligi ham bu sohalarning umri yakunlanganligini bildiradi.

Fikrimcha, ertangi kun egalarini tarbiya qilishda ta'limni birinchi o'ringa chiqarish, turli yo'llar bilan iqtisodiy daromad qilishning halol yo'llarini ham o'rgatib borish kerak. Oson boyishga urinish natijasida treyderlik, hakkerlik yoki trollik faoliyati bilan shug'ullanib jinoyat ko'chasiga kirib qolayotgan yoshlar soni bugun ortib borayotganligi eng achinarli holatdir. Ichki ishlar vazirligi matbuot xizmatining xabar berishicha 2024- yilda voyaga yetmaganlar orasida sodir qilingan jinoyatlarning 19,2 foizi aynan shu yo'nalishlar bilan bog'liq ekan.

Yaxshi so'z muxtasar deganlaridek, esse xulosasida yoshlarning zamonaviy faoliyat turlari bilan shug'ullanishini cheklamagan holda an'anaviy kasb- hunarlarga bo'lgan talabni ham inobatga olish, yosh avlodning jamiyat va davlat uchun foydali bo'lgan yo'nalishlarda mehnat faoliyatini olib borishini qo'llab- quvvatlash zarurligini ta'kidlash o'rinli. Zero texnologik jarayonlar qancha shiddatkor bo'lmasin inson va uning manfaatlari barcha zamonlar uchun birlamchi g'oya hisoblanadi.

**Ma'rifat Abduxamidova**

## **2. An'anaviy to'ylar xorijiy to'ylar kabi ixcham va zamonaviy tarzda o'tkazilishiga qanday qaraysiz?**

O'zbek xalqi qadimdan yaqinlar davrasida bo'lib o'tadigan marosim-u an'analar shaydosi bo'lib kelgan. Yuzlab kishiga dasturxon yozib, to'y qilish esa Osiyo tub xalqlari o'rtasida ommalashgan holat. Bilamizki, chet davlatlardagi bunday marosimlar biznikidan farqli o'laroq

tor doirada o'tkaziladi. Biz ham ulardan namuna olgan holda to'ylarimiz qamrovini qisqartirsak-chi? Buning qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor?

Ta'kidlaganimdek, to'y-bu orziqib kutilgan, orzu-havaslar ro'yobi ko'riladigan muhim kun. Shuning uchun har bir inson bu kunning esda qolarli o'tishini xohlaydi: yuzlab kishi uchun to'yxona band qiladi, o'nlab qozonlarda osh, tansiq taomlar tayyorlaydi, nomi chiqqan mashhur san'atkor-u artistlar ansamblini necha yuz AQSH dollari to'lab chaqiradi. Bundan 2 yil oldin O'zbekistonga kelgan rossiyalik relokantlar Chorsu bozorida to'y qilishgandi. Vaholanki, to'ylar hajmini qisqartirish, uni kam sonli yaqinlar davrasida o'tkazish haqida gap borganda, xalqimiz "Odamlar nima deydi" degan o'sha mashhur iborani asos qilib ko'rsatishadi. Aytish joizki, to'y uchun sarflanayotgan millionlarni farzandlar ta'limi, o'qishi va kelajagi yo'lida ishlatish jamiyatga katta foyda keltiradi.

"To'ylar-asrlar davomida saqlanib kelayotgan an'analarimiz namunasi" deydiganlar topilar ekan, tanganing ikkinchi tarafi ham borligi kishini mulohazaga undaydi. Darhaqiqat, siz-u biz o'qigan "Alpomish", "Ravshan" kabi milliy dostonlarning "qirq kecha-yu qirq kunduz to'y qilib baxtli hayot kechirishibdi" kabi an'anaviy yakuni dabdabali to'ylar xalqimiz qon-qoniga singib ketganligining yaqqol namunasidir. Bundan tashqari, xalqimiz oqibat tushunchasiga jiddiy yondashadi, yillab kutilgan yaxshi kuniga barcha yaqinlari, qavm-qarindoshlari, qo'ni-qo'shnilari guvoh bo'lishini xohlashadi. Bunday marosimlar insonlar orasida mehr-oqibat rishtalarini mustahkamlaydi. Aytish joizki, "Sevimli" telekanali muxbirlari olib borgan so'rovnoma ko'ra, qariyb 70 foiz aholi an'anaviy to'ylarni ma'qul ko'rishgan va bunga sabab qilib to'y va marosimlarga ajdodlardan qolgan meros sifatida qarashini ta'kidlashgan.

O'z shaxsiy nuqtayi nazarimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, men o'zbek xalqining bir vakili sifatida an'anaviy to'ylarimiz hozirgidek fayzli, hashamatli, ko'plab yaqinlar davrasida o'tishi tarafdoriman. Chunki xalqimiz to'ylarida el birlashadi, baraka bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, to'ylar xalqimiz madaniyatining ajralmas qismidir. Ularga tarixning bir bo'lagi sifatida qarashimiz va o'zbeklimizga mos va xos tarzda o'tkazishimiz lozim.

**Gulshoda Elyorovna**

### **3.Jamoat transporti yoki shaxsiy transport:qay biri ma'qulroq?**

Bilamizki,so'nggi yillarga kelib yo'llardagi mashinalar qatnovi sezilarli darajada oshdi.Har kuni biror zarurat bilan ko'chaga chiqar ekanmiz,har uchta avtomobildan biri jamoat transporti ekanligiga guvoh bo'lishimiz tabiiy hol.Asilda,bu tanlovni har bir shaxs o'z imkon va sharoitidan kelib chiqib amalga oshiradi va har ikkisining yetarlicha afzal tomonlari bor.

Keling,20 yil avvalgi davrga biroz nazar tashlasak, 2000-yillarda O'zbekiston aholisi yigirma milliondan sal ko'proq ko'rsatkichni tashkil qilar edi,u paytlarda shaxsiy avtomobil ham sanoqli insonlarda bo'lishini hisobga olsak,tabiiyki, aholi jamoat transportlariga deyarli ehtiyoj sezmagani.Jamoat transportining eng qulay taraflaridan biri moddiy ehtiyojlarga borib taqalishi sir emas,albatta.Kun sayin mashinalar narxi "osmonga ko'tarilayotgani" shaxsiy avtomobilga ega bo'lish orzusidagi oddiy insonlarning hafsalasini pir qilayotgani tayin.Bundan tashqari, har kuni mashinani benzin bilan to'ldirish, har yili qish mavsumida uni texnik ko'rikdan o'tkazish(qish fasliga mos shinalar taqish kabi xizmatlar),qolaversa, har yurgan yo'lida turli radarlarga duch kelib,har oy cho'ntagidan ortiqcha millionlarni chiqarish hammaga ham to'g'ri kelmaydi.Har kuni universitetga qatnashim mobaynida har ikki turdagi transport xizmatidan foydalanib ko'rgan yo'lovchi sifatida jamoat transportlarining mablag' va xavfsizlik jihatidan shaxsiy ulovlardan ustun turishini yaxshigina angladim.Ayniqsa,hammani dovdiratgan anomal sovuq kunlari yo'lovchilarning xavsizligini ta'minlash maqsadida davlat tomonidan shaxsiy avtomobillar harakatiga ta'qiq qo'yilgani so'zinning isbotidir.Qolaversa, har kuni sodir bo'layotgan yo'l transport hodisalarining ko'p qismi shaxsiy avtomobillar bilan yuzaga kelishini ham inkor qilib bo'lmaydi.

Masalaning ikkinchi jihatiga nazar tashlaydigan bo'lsak,biz "qimmat" deya bong urayotgan shaxsiy transportning aholi yashash sifatini yaxshilashga talaygina hissa qo'shayotganiga amin bo'lamiz. Har kuni avtobus bekatlarida daqiqalarni o'tkazish,bundan tashqari, belgilangan manzilga vaqtdan yigirma minut keyin yetib borish,odamlar orasida turli noqulayliklarga duch kelish shaxsiy avtomobil talabini keltirib chiqaradi.Dunyo tibbiyotini ham lol qoldirgan Covid-19 kasalligi

avj olgan paytda virus bilan kasallanganlarning 38 foizi aynan tiqilinch odamlar orasida yuqqani jamoat transportidan foydalanishning salbiy tomonlaridan biridir. Qolaversa, yozning eng issiq kunlari ellikka yaqin yo'lovchilar bilan to'lgan avtobuslarda nafas yetishmovchiligi bilan qiynaladigan fuqarolarning turli qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy, albatta. Avtobuslardagi o'rindiqlar sonining yo'lovchilar sonidan kamligi esa soatlab yo'lni tik oyoqda bosib o'tish kabi noqulayliklar tug'ilishiga zamin yaratadi.

O'z nuqtayi nazarimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, yengil avtomobillar afzallik va qulaylik jihatdan jamoat transportlaridan anchagina farq qiladi. Ayniqsa, biror joyga shoshilinch borish masalasi turganda, shaxsiy mashinalarni tanlash maqsadga muvofiq.

Muxtasar qilib aytganda, shaxsiy avtomobil yoki jamoat transportidan foydalanish har kimning o'z individual tanloviga bog'liq. Bunda har bir odam o'z imkoniyat va sharoitidan kelib chiqib tanlovni amalga oshiradi.

Yuqorida har ikki tarafga xolis fikrlar bilan yondashdik. So'zinning xulosasi sifatida shaxsiy transportdan foydalanish aholiga ko'plab imkoniyatlar yaratishi, qolaversa, texnologiyalar asrida zamon bilan hamnafas yashashning tarafdori ekanligimni ta'kidlab o'tmoqchiman.

**Gulshoda Elyorovna**

#### **4. Ayrimlar yaxshi yashash uchun bitta kasbning mohir ustasi bo'lish kerak deb bilishsa, ba'zilar bir necha kasb egasi bo'lish foydaliroq deb hisoblashadi.**

Zamonaviy dunyoda yuqori daromadga ega bo'lish va o'z qobiliyatlarini to'liq namoyon etish yo'llari har xil bo'lib, ba'zi kishilar bir kasbni mukammal egallash muvaffaqiyat kaliti deb hisoblashadi. Boshqalar esa ko'p qirrali bo'lish va bir nechta kasb bilan shug'ullanish foydaliroq deb bilishadi. Bu masalada har ikki yondashuvning ham o'ziga yarasha afzallik va kamchiliklari bor.

Birinchi qarash tarafdorlarining fikricha, bir sohada chuqur bilim va tajriba orttirish insonni o'sha sohada yetakchi qiladi. Haqiqatan ham, o'z kasbining ustasi bo'lgan shaxs mehnat bozori uchun qimmatli mutaxassisga aylanadi. Masalan, iqtidorli o'qituvchi, iste'dodli moliyachi yoki malakali tish shifokori o'z sohasida yuqori darajaga chiqishi va

yaxshi daromad topishi mumkin. Ularning fikricha, turli kasblarda ishlash inson diqqatini bo‘linishiga va ish sifatining tushishiga sabab bo‘ladi. Mashhur “Forbes” nashrida keltirilishicha, jahondagi milliarderlarning aksariyati bir faoliyat bilan shug‘ullanib, o‘z sohasini rivojlantirgan, o‘sha yo‘nalishda yetakchi dunyo brendlariga asos sola olgan ekan.

Ikkinchi qarash tarafdorlarining fikricha, zamonaviy dunyo tez o‘zgarib borayotganligi sababli, bir nechta kasb egasi bo‘lish ham katta afzalliklarga ega. “Bir yigitga qirq hunar oz” degan ota- bobolarimiz ham ayni shu jihatga e‘tibor qaratgan bo‘lsa ne ajab. Birinchidan, texnologiya rivojlanishi bilan ko‘plab kasblar yo‘qolib, yangi sohalar paydo bo‘layotgan bir paytda, faqat bitta soha bilan cheklanish xavfli bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, bir nechta kasb egasi bo‘lgan inson o‘zining moslashuvchanligi tufayli turli vaziyatlarda ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan, o‘qituvchi bo‘lish bilan birga tadbirkorlik sohasi bilan shug‘ullanish yangi imkoniyatlar yaratadi. Misol tariqasida, Muhammadali Eshonqulovni keltirish mumkin. U universitetda nafaqat o‘qituvchilik, balki tadbirkorlik va yangi maktablar ochish ishi bilan ham shug‘ullanib kelmoqda.

"Har kim o‘z qarichi bilan o‘lchar" deganlaridek, har xil kasb egasi bo‘lish inson kelajagi uchun ham foydali deb o‘ylayman. Chunki zamonaviy o‘zgarishlarga moslashish va ko‘proq imkoniyat yaratish bugungi kunning asosiy vazifasi hisoblanadi. Shuningdek, turli kasb egasi bo‘lish insonda ijodkorlar qobiliyatini ham shakllantiradi. Ozod Shukrullayev ismli vayner o‘zining chiroyli kontentlari bilan yaxshigina daromadga ega bo‘lsa, ayni damda oliy toifali jarroh sifatida ham faoliyat yuritishi ko‘pchilikning hayratiga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, inson chiroyli kelajak yarata olishi uchun o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kasb va hunar tanlaydi. Agar u birdan ortiq bo‘lsa va kishining farovonligiga xizmat qilsa nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

**Laylo Bakirova**

**5. Ayrimlar o‘rtacha ish vaqti uzoq bo‘lgan mamlakatlar iqtisodiy jihatdan muvaffaqiyatli ekanini ta’kidlashadi, ayrimlar bu holat ko‘pincha salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkinligini aytishadi.**

Bugungi kunda kishilar hayotida ish vaqti muhim ahamiyatga ega. Ba’zi insonlar davlatning rivoji uchun o‘rtacha ish vaqti uzoq bo‘lishi

kerak deb hisoblaydi. Ayrimlar esa bu yechim bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Aslida, qanday yo'l tutgan to'g'ri?

Darhaqiqat, halol va chin ko'ngildan qilingan mehnat yurtning rivoji uchun muhim ahamiyatga ega, albatta. Ish vaqti uzoq bo'lishi kerak deb hisoblaydiganlarning ham bu qarorga kelishlarida yetarlicha sabablari bor. Birinchidan, davlat rivojlanadi, mehnat unumdorligi oshib, yuqori tajribaga ega bo'lishini ko'rish mumkin. Hozirda Xitoy davlati eng yuksak qudratga ega mamlakatlar qatorida ekanligi hech kimga sir emas. Uzoq vaqt mehnat qilish mobaynida ko'proq mahsulot va tovar ishlab chiqariladi, bu esa kompaniya va zavodga yuqori foyda keltiradi. Bundan tashqari, jamoaviy hamkorlik kuchayadi, chunki ko'proq vaqt birga vaqt o'tqazib, muammolarni birgalikda hal qilishadi. Bu esa jamoa ruhini oshirib, hamjihatlikni yuzaga keltiradi. Ko'p vaqtini ishda o'tkazish moliyaviy mustaqillikka erishishni ta'minlaydi. Masalan, Xitoyda ko'plab kompaniyalar 9-9-6 tartibotiga amal qiladi. Buni Alibaba Group korxonasi ham qo'llab-quvvatlaydi.

Har to'kisda bir ayb deganlaridek, uzoq vaqt mehnat qilishning bir qancha salbiy jihatlari ham bor. Birinchidan, kuchli charchoq va ruhiy zo'riqishni keltirib chiqaradi. Jahon Sog'likni Saqlash Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, haftasiga 55-60 soat ishlash, 35-40 soat ishlaydiganlarga taqqoslanganda, insult xavfini 35 foiz, yurak kasalliklarini 17 foizga oshirganligi ma'lum bo'lgan. Yana bir jihati shundaki, inson o'zi va oilasiga kam vaqt ajratishiga to'g'ri keladi. Bu esa ajrimlarga ham sabab bo'lishi mumkin. Bir xil mehnatdan zerikish hissi paydo bo'lib, ish unumdorligi tushib ketadi. Masalan, Yaponiya davlatida ishchi-xodimlarning o'z joniga qasd qilishi va kuchli stress holatlar uzoq vaqt ishlash natijasida yuzaga kelar ekan.

Menimcha, yurt ravnaqi uchun uzoq vaqt ishlash yechim bo'la olmaydi. "Yaxshi dam-mehnatga hamdam" deganlaridek, o'z vaqtida dam olish rivojlanish kafolatidir. Yurtimizda haftasiga 40 soat ish vaqti qilib belgilangani fikrimizning dalilidir. Uzoq vaqt davomida ishlash ham jismonan, ham ruhan zo'riqishga olib keladi, shuning uchun hamma vaqt me'yori bo'lgani ma'qul.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har kim o'z yurtining rivoji uchun hissa qo'shishi lozim. Bunda me'yorga amal qilgan holda ish yuritsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Vaqida ishlash va kerakli paytda dam olish-rivojlanishning asosidir.

**Muborak Alixonova**

# *Ona tili juda oson*